


O‘zDSMI Ilmiy kengashida Nodira Kasimova san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi

Bugun O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida Nodira Kasimovaning san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiya ishi himoyasi bo‘lib o‘tdi.

«O‘zbekistonda qisqa metrajli badiiy kinoning rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlar» mavzusida yoqlangan himoya dissertatsiyasida sohadagi muammo va kamchiliklar atroflicha yoritib berildi.

Dissertatsiya himoyasi natijasiga ko‘ra, kengash a‘zolari tomonidan Nodira Kasimova san‘atshunoslik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun loyiq deb topildi.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti jamoasi Nodira Kasimovani dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilganligi bilan tabriklaydi va kelgusidagi ilmiy va kasbiy faoliyatida ulkan zafarlar tilaydi.





O'zDSMI Ilmiy kengashida Robiya Tursunmetova san'atshunoslik fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Robiya Tursunmetovaning san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiya ishi himoyasi bo'lib o'tdi.

«Zamonaviy o'zbek badiiy kinosida xarakter talqinlari» mavzusida yoqlangan himoya dissertatsiyada tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va

texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiqot ob'yekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari belgilangan, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, dissertatsiya mavzusi bo'yicha nashr etilgan maqolalar, tadqiqot ishining tuzilishi to'g'risida atroflicha ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiya himoyasi natijasiga ko'ra, kengash a'zolari tomonidan Robiya Tursunmetova san'atshunoslik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun loyiq deb topildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoasi Robiya Tursunmetovani dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilganligi bilan tabriklaydi va kelgusidagi ilmiy va kasbiy faoliyatida ulkan zafarlar tilaydi.





